



PIRLS XALQARO TADQIQOTI UCHUN MATNLARNI TANLAB OLISH VA BAHOLASH JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

Hasanova S.K.

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Tayanch so'zlar: PIRLS, matn va hikoyalar, metodika, fikr-mulohaza, tushunish, axborot, o'qish.

Ключевые слова: PIRLS, текст и рассказы, методология, обратная связь, понимание, информация, чтение.

Key words: PIRLS, text and stories, methodology, feedback, understanding, information, reading.

Kirish. Bugungi kunda ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, o'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo'lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o'rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar. Yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko'ra mazkur savodxonlik o'quvchilarning o'rganishlari uchun o'qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyat kasb etmoqda. [1; 22-b]

Tahlil va natijalar. PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish



va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Ko'p imkoniyatlarni rivojlantirishga xizmat qilayotgan bu baholash dasturi O'zbekiston ta'lim tizimida ham ahamiyatli deb topilgan va amalda qo'llash joriy etildi. Shunga binoan, hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. [5; 45-b]

Axborotni olish va undan foydalanish uchun o'qish. Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o'qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat bo'lgani sababli, odatda yozuvchilar o'zlari yortimoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondoshadi. Ko'p axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Masalan, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar toki puxta o'ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o'quvchiga yetkazib berishi mumkin. O'quvchi o'z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak. [2: 35-b]

Tushunish jarayonlari. Turli o'qish tarzi o'quvchilardan matn mazmunini turli xil usulda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, PIRLS tadqiqoti odatda boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan qo'llaniladigan to'rt tushunish jarayonini baholaydi. Bu to'rtala tushunish jarayonlariga diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish; to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish kiradi. Mazkur jarayonlar chegarasidan o'qib, o'quvchilarga o'qib tushunish ko'nikmasini tekshirish va o'z qarashlarini o'zgartirish imkonini beradigan tushunish jarayonlari va strategiyalarini o'zlashtiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarni o'qib tushunishlari uchun kerak bo'ladigan bilim va birlamchi tajribalari ularga tilni, matnlarni, dunyoni tushunishlariga yordam berib, ular bu bilim va ko'nikmalaridan foydalanib, biror material (yoki ma'lumot) haqidagi tushunchalarini tahlil qiladi. [4; 57-b]

Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish. O'quvchilar matnda aniq bayon qilingan ma'lumotlarga turlicha diqqat-e'tibor bilan



qaraydilar. Matnda bildirilgan ayrim fikr-mulohazalar o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini jalb etadi, ba'zilar esa ularda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Masalan, agar matndagi fikr-mulohazalar o'quvchilar matn mazmuni yoki o'qishdan ko'zlangan umumiy maqsadiga oid fikr-mulohazalariga zid yoki ularni tasdiqlasa, o'quvchilar ayni shunday fikrlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, o'quvchilar odatda o'qish bo'yicha berilgan savolga javob berish yoki matnning ayrim jihatlari qay daraja tushunganliklarini tekshirish uchun undagi ma'lumotlarni qidirib topishga harakat qiladi.

PIRLS va ePIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida beriladigan matnlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini

rivojlantirish guruhi va tadqiqot koordinatorlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Topshiriqlarda beriladigan matnlar va veb saytlar quyidagicha xususiyatga ega bo'lishiga e'tibor beriladi:

- Aniqlik va mantiqiy bog'langanlik;
- Matnlar mazmuni barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun mosligi;
- Materiallarni o'quvchilar uchun qiziqarli va jozibadorligi;
- Bir qator keng tushunish jarayonlarini baholash uchun yetarlicha asos bo'lishi.

Baholash jarayonida qat'iy vaqtning belgilab qo'yilishi ham o'quvchilarga katta hajmli matnlarni o'qishlari uchun ayrim cheklovlar qo'yadi, chunki o'quvchilar butun matnning o'qib chiqib, u asosida berilgan savollarga javob berishlari talab etiladi. PIRLS tadqiqotida matnlarning murakkabligidan kelib chiqib, odatda ularning hajmi 500 tadan 800 tagacha so'zdan iborat bo'lishi kerak. Shunga qaramasdan, matn hajmi o'zgarishi ham mumkin, chunki matnning boshqa jihatlari ham o'quvchilarning o'qib tushunish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tadqiqot doirasida qo'llaniladigan matnlarni saralab olishda ishtirokchi mamlakatlarning o'ziga xos jihatlari alohida e'tibor qaratiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad topshiriqlarda beriladigan matnlarning barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun mos bo'lishini ta'minlashdan iborat.

O'qishdan ko'zlangan maqsadlar

- Agar berilgan matn badiiy matn sifatida tasniflansa, shu maqsadga muvofiq bo'lgan savollar tuzing.
- Agar berilgan matn ma'lumot beruvchi (axborot) matn sifatida tasniflansa, shunday savol turini tuzing.
- Savollarni tuzishda matn maqsadidan kelib chiqib, yondashing, chunki o'qishdan ko'zlangan maqsad har doim ham muayyan matn turi bilan mos kelavermaydi.



Tushunish jarayoni. Badiiy va ma'lumot berish maqsadlari jihatidan PIRLSdasturi to'rt turdagi tushunish jarayonini baholaydi. Savollarni tuzishda har bir jarayon uchun belgilangan baholash mezonini yoki foizli ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratish lozim. O'quvchining tushunish jarayoni va o'qishdan ko'zlagan maqsadlariga qaratilgan PIRLS baholash dasturining foizli ko'rsatkichlarda berilishi quyidagilarni inobatga olib tuzilgan har bir matnga oid savollar uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

Izlash va topish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda 3 tadan 4 tagacha savol/topshiriqlar berilishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi);

To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish: 5 balldan 6 ballgacha (4 yoki 5 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir yoki ikki ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi);

Talqin qilish va umumlashtirish: 5 balldan 6 ballgacha (2 yoki 3 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki

savollar asosan 2 yoki 3 ballik javob yozishni talab etadigan uzunroq ochiq savollardan iborat bo'ladi);

Baholash va tanqidiy baho berish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda odatda bir necha har xil turdagi savollar beriladi, shu sababli savollar 4 ta muqobil javob variantidan tortib bitta javob yozishni talab qiladigan uch ballik ochiq savollargacha bo'lishi mumkin)

Xulosa. Tadqiqot uchun tanlanayotgan har bir matn va hikoya bugungi kun uchun dolzarb mavzu bo'lishi lozim. O'quvchilar taxlil qilish jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy xulosalarga to'xtab o'tishlari zarur. Negaki, bizning ta'lim tizimimiz ta'limning tarbiya bilan uzviy olib borilishi bilan ajralib turadi. [3; 25-b] PIRLSga qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston ta'limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son
3. Mahliyo Khaydarova. (2023). The content of teaching science of education in primary classes. World Bulletin of Social Sciences, 27, 45-48.
4. Mahliyo Khaydarova. (2023). Improvement of methodological facility to teaching PEDagogy. World Bulletin of Social Sciences, 27, 49-53.
5. Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna. (2022). Theoretical bases of preparation of future primary school teachers for teaching the subject of education. Conference Zone, 95-96.



6. Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna. (2022). The need to teach the subject of education in primary school. Conference Zone, 97–98.
7. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). Possibilities of an integrative approach to the formation of a culture of environmental safety. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.
8. Xaydarova, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitish faoliyatiga tayyorlash mazmuni. Interpretation and researches, 2(1).
9. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savoxonligi darslarida pirls xalqaro baholash dasturini takomillashtirish. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: innovatsiyalar muammolar va rivojlanish istiqbollari. -Termiz 2023, 2023-yil.
10. Hasanova Sabohat Komil qizi O'qish savodxonligi darslarida pirls hikoyalarni qo'llash metodikasi. International conference on interdisciplinary science Volume 01, Issue 02, 2024 USA-2024

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tadqiqot doirasi samarali foydalanish uchun qo'llanadigan matn va hikoyalar tanlab olish metodikasi haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Hikoyalarni tanlab olishda o'quvchilarning yoshi, qiziqishi va bugungi dolzarb bo'layotgan mavzularni hisobga olish zarur. O'qivchilar bilan tahlil qilish jarayonida har bir matn va hikoyani ta'limiy-tarbiyaviy jihatiga e'tibor berish kerakligi haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается метод отбора текстов и рассказов для эффективного использования объема исследования. При выборе рассказов необходимо учитывать возраст, интересы и актуальные темы учащихся. Со студентами обсуждалось, что в процессе анализа необходимо обращать внимание на образовательный аспект каждого текста и рассказа.

SUMMARY

This article discusses the method of selecting texts and stories for effective use of the research scope. When choosing stories, it is necessary to take into account the age, interest and current topics of the students. It was discussed with the students that in the process of analysis, it is necessary to pay attention to the educational aspect of each text and story.